

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O'zbek va chet tillari kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan
jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari uchun "O'zbek
tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha ishlab chiqilgan sillabuslariga

T A Q R I Z

Jismoniy tarbiya va sport universitetining barcha yo'nalishlarida "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" bo'yicha ishlab chiqilgan sillabus fanning o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, 1-bosqich talabalari uchun 1-2 semestrlarda, jami 60 soatlik amaliy mashg'ulot, 60 soatlik mustaqil ish mavzularini o'z ichiga oladi. Fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari, talabalar tomonidan egallanadigan bilim va ko'nikma, malakalarni kengaytirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, talabalarning o'qishda, jamoat joylarida, mehnat jarayonida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almashish bilan birga sohada qo'llanadigan termin va atamalar haqidagi bilimlarni tashkil etgan.

Mavzular sohaga doir ixtisoslik leksikasini o'zlashtirish, o'z kasbi doirasida davlat tilida ish yurita olish tarzida nutqiy aloqaga kirish malakasini egallab borish, tanlangan mutaxassislik bo'yicha ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tushunish, maqolalar yozishga yo'naltirish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Sillabusning asosiy qismida foydalanilgan materiallarning barchasi jismoniy tarbiya va sport sohasi bilan bog'liqdir. Mualliflar grammatik mavzularni tushuntirishda ilmiy atamalarning izohlarini o'rgatishga ham e'tibor qaratishgan. Har bir mavzu uzviy, izchil ketma-ketlikda, birinchisining mantiqiy davom ettirilishi, to'ldirilib, yangi mavzuning topshiriqlar orqali yana davomiyligini ta'minlagan. Talabalarning imkon qadar ko'proq sohasi bo'yicha termin va atamalarni bilishlari uchun, ularning tanlagan sport turiga xos so'z va jummalarni, iboralar va gaplarni o'z ichiga olgan va mustaqil lug'at bilan ishlashga davlat etuvchi mavzularning berilishi shu kunning talablari asosidadir. Shuningdek, matn tahlili va tahriri, maqola va referat yozish, annotasiya va taqriz tayyorlash qoidalari va yo'l-yo'riqlari haqida ham batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib, tavsiya qilingan mavzular bevosita talabani ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, dastlabki ilmiy tadqiqot jarayonidagi o'ziga xosliklar haqida amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan.

Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini nofilologik yo'nalishlarda o'quvchisiga o'rgatishning iloji ham va buning zaruriyati ham yo'q. Shunday ekan, demak, ona tilidan zarur bilimlarni tanla o'qitish - eng asosiy masalalardan biri sanaladi. O'zbek tilining sohada qo'llashning va bilimlarni tanlashning bosh mezonini uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir.

Fan dasturi asosida tuzilgan Sillabusda asosan til qonuniyatlari emas, balki ko'proq tilning amaliy jihatlari o'rgatilishi, bu tizimning o'ziga xosligi esa unda ona tili faniga shunchaki o'quv predmeti sifatida qaralmasdan, til butun borliqni: tabiatni,

jamiyatni, fanlarni, o'zlikni anglash, kasbiy faoliyatni tushunish vositasiga aylantiriladi. Talaba fanni o'zlashtirish jarayonida, uni turli ijtimoiy munosabatlarda qo'llashni o'rganadi.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilgan jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari uchun tayyorlangan "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fan sillabusi turli grammatik qoidalaridan ko'ra, talabalarni ko'proq mutaxassisligiga yo'naltirilgan mavzular bilan ishlashga qaratilgan. Har bir mavzu tilning muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanilishi nuqtayi nazaridan tanlangan. Shuningdek, fan sillabusi talabalarni kreativ va ijodiy fikrlashga, izlanishga undaydi. Ularning tinglab tushunishi, o'qib tushunishi, so'zlashi, yozishi kabi nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga, sohaviy atamalarning amaliy jihatdan samaradorligini oshirishga da'vat qilinadi.

"O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fan sillabusini jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari o'rganishlari zarur bo'lgan bilimlar yig'indisi sifatida amaliyotga joriy etishni tavsiya etaman.

Taqrizchi:

O'zDJTSU O'zbek va chet tillari kafedrası

prof.v.b., filologiya fanlari nomzodi I.Boltayeva